BOLALARDA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI VA MEXANIZMLARI

G.O.Najmiddinova[1]

1. MTTDMQTMOI DSc, dotsent 973424122

Mas'ul muallif: Najmiddinova Gulnoza Odilovna, MTTDMQTMOI DSc, dotsent 973424122.

e-mail: n.gulnoza1989@gmail.com

Received: 15 Noyabr 2026
Accepted: 20 Noyabr 2026
Published: 25 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Najmiddinova, G. O. BOLALARDA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI VA MEXANIZMLARI / G. O. Najmiddinova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 343–346.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik hamda pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda muloqotning bolaning shaxsiy rivojlanishi, emotsional intellekti va ijtimoiy moslashuvidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yosh davrlari psixologiyasi nuqtai nazaridan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali metodlari va psixologik shart-sharoitlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-kommunikativlik, muloqot psixologiyasi, emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv, shaxs rivojlanishi, kognitiv jarayonlar, pedagogik-psixologik yondashuv.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические и педагогические механизмы формирования и развития социально-коммуникативных навыков у детей. В исследовании освещена роль общения в личностном развитии, формировании эмоционального интеллекта и социальной адаптации ребенка. Также с точки зрения возрастной психологии обоснованы эффективные методы и психологические условия развития коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: социально-коммуникативность, психология общения, эмоциональный интеллект, социальная адаптация, развитие личности, когнитивные процессы, психолого-педагогический подход.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS AND MECHANISMS FOR DEVELOPING SOCIAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCE IN CHILDREN

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical mechanisms of forming and developing socio-communicative skills in children. The study highlights the role of communication in personal development, emotional intelligence, and social adaptation of a child. Furthermore, effective methods and psychological conditions for developing communicative competence are substantiated from the perspective of developmental psychology.

Keywords: socio-communicativeness, psychology of communication, emotional intelligence, social adaptation, personality development, cognitive processes, psychological and pedagogical approach.

Kirish. Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uning ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi. Ijtimoiy-kommunikativlik - bu shaxsning boshqa insonlar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ijtimoiy me’yorlarni anglash, hamkorlik qilish hamda o‘z hissiyotlari va fikrlarini adekvat ifoda etish qobiliyatidir.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, bola tug‘ilganidan boshlab ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, bolaning barcha oliy psixik funksiyalari (tafakkur, nutq, ixtiyoriy diqqat) dastlab ijtimoiy munosabatlar tizimida, ya’ni kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladi, so‘ngra ichki psixologik tuzilmaga (interiorizatsiya) aylanadi. Shu sababli, bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish shunchaki nutq o‘stirish emas, balki chuqur psixologik jarayon sifatida tadqiq etilishi lozim.

Asosiy qism

1. Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishning psixologik mexanizmlari

Bolada muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ontogenezning ilk bosqichlaridanoq namoyon bo‘ladi. M.I. Lisina muloqotni o‘ziga xos faoliyat turi sifatida ta’riflab, uning asosida boshqa insonni anglash va o‘z-o‘zini baholash yotishini ta’kidlaydi. Bolalarda ijtimoiy-kommunikativlikning rivojlanishi quyidagi psixologik komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Kognitiv komponent: Suhbatdoshning xatti-harakatlarini tushunish, ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish va nutqiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish.

Emotsional komponent (Empatiya): Boshqalarning his-tuyg‘ularini his qilish, hamdardlik bildirish va o‘z emotsional holatini boshqara olish (emotsional intellekt).

Xulq-atvor komponenti: Muloqot jarayonida konstruktiv strategiyalarni qo‘llash, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va hamkorlikka kirishish.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda ekstsentrizm (vaziyatga faqat o‘z nuqtai nazaridan qarash) bosqichidan detsentratsiya (boshqa odamning pozitsiyasini tushunish) bosqichiga o‘tish ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishning eng muhim burilish nuqtasidir.

2. Yosh davrlari kesimida kommunikativlikning psixologik xususiyatlari

Har bir yosh davri bolaning psixik rivojlanishida yetakchi faoliyat turi bilan belgilanadi:

Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh): Bu davrda yetakchi faoliyat - syujetli-rolli o‘yinlardir. O‘yin jarayonida bola ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi, qoidalarga bo‘ysunishni va tengdoshlari bilan kelishishni o‘rganadi. Psixologik jihatdan o‘yin bolaga o‘z "Men"ini boshqalar bilan taqqoslash va ijtimoiy reflektsiyani shakllantirish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshi (7–11 yosh): Yetakchi faoliyat o‘quv faoliyatiga o‘tishi bilan muloqot doirasi kengayadi. O‘qituvchi bilan "ishchan" muloqot va sinfdoshlar bilan jamoaviy munosabatlar bolada mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Bu davrda tengdoshlar guruhida o‘z o‘rnini topish (sotsiometrik maqom) bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi (samootsenka) shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Pedagogik-psixologik jarayon sifatida rivojlantirish shartlari

Bolalarda ijtimoiy-kommunikativlikni maqsadli rivojlantirish pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi tizimli yondashuvini talab etadi. Buning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur:

Psixologik xavfsiz muhit yaratish: Bola o‘z fikrini xato qilishdan yoki tanqidga uchrashdan qo‘rqmasdan erkin bayon eta oladigan muhit kommunikativ to‘siqlarni (uyatchanlik, xavotirlanish) bartaraf etadi.

Subyekt-subyekt munosabatlari: Pedagog bolaga tarbiya obyekti sifatida emas, balki teng huquqli muloqot subyekti sifatida yondashishi lozim. Avtoritar uslub bolada passivlik va muloqotdan qochish reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Interfaol va trening metodlaridan foydalanish: Rolli o‘yinlar, psixogimnastika, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish (keys-stadi) hamda ertak terapiyasi bolalarda empatiya va noverbal muloqot (mimika, jest, intonatsiya) ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samara beradi.

Oilaviy muhit bilan integratsiya: Bolaning ilk kommunikativ modellari oilada shakllanadi. Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish va oiladagi muloqot madaniyatini sog‘lomlashtirish bolaning tashqi muhitga moslashuvini tezlashtiradi.

Variativ yondashuv asosida ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida takomillashtirish mazmuni ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya, bilingvizm, va variativ yondashuvning o‘zaro integratsiyasidan tashkil topgan murakkab pedagogik tizim sifatida izohlanadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasini tilni faqat grammatik jihatdan “to‘g‘ri” qo‘llash emas, balki “qachon, kim bilan, qanday maqsadda va qanday uslubda gapirish”ni bilish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda shaxsning ijtimoiy rolini anglash, nutqiy vaziyatni baholash, muloqot strategiyalarini tanlash va muayyan madaniy normalarga mos ravishda fikr bildirish ijtimoiy-kommunikativlikning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Ilmiy izlanishlarida kommunikativ kompetensiya to‘rt asosiy komponentdan iborat ekanligiga e’tibor qaratiladi:

grammatik (lingvistik) kompetensiya – so‘z boyligi, grammatik shakllar, fonetika va sintaksisni egallash;

sotsiolingvistik kompetensiya – muayyan ijtimoiy vaziyat, muloqot ishtirokchilari maqomi, madaniy normalarga mos nutq uslubini tanlash;

diskursiv kompetensiya – gap va matnlarni mantiqan, semantik va pragmatik jihatdan yaxlit, uzviy bog‘lash;

strategik kompetensiya – muloqotdagi uzilish, tushunmovchiliklarni turli kommunikativ strategiyalar yordamida bartaraf eta olish. Demak, kommunikativ kompetensiya muayyan tilni grammatik-lingvistik bilishdan uni real ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo’llay olishgacha bo’lgan jarayonni qamrab oladi.

Komunikativ kompetensiya “til haqidagi bilim” va “bu bilimni real muloqotda safarbar eta olish ko‘nikmalarining birligi” ekanligi asoslab beriladi.

Shuningdek, zamonaviy lingvodidaktik talqinlarda kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarning birligi hamda shaxsning turli ijtimoiy kontekstlarda mazmunli, maqsadga yo‘naltirilgan va madaniy jihatdan mos muloqotga kirisha olish salohiyati sifatida izohlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, kommunikativ kompetensiya muayyan tilning grammatik, fonetik, sintaktik asoslarini bilish, ijtimoiy-madaniy vaziyatlarni real his etish, nutqni yaxlit, uzviy va izchil tashkil eta olish hamda muloqotdagi muammolarni strategik yengib o‘tish qobiliyatining yaxlit majmuasini anglatadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim davrida kommunikativ kompetensiyani avvalo, bolaning ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi va ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishining asosiy omili sifatida tushunish maqsadga muvofiq bo’ladi. Mazkur holatda tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlik oddiy leksik-grammatik strukturalarni egallaganlik, talaffuzning yoshga mos va ravonligi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda murojaat shakllarini farqlash, odob me’yorlariga rioya etish, “salomlashish-xayrlashish”, “minnatdorchilik bildirish”, “uzr so‘rash”, “navbat kutish” kabi ijtimoiy nutq aktlarini faol qo‘llay olish, o‘yin vaziyatlarida rolga mos til birliklarini tanlay olish, voqealarni ketma-ket, mantiqiy izchillikda hikoya qilish, savol-javob muloqotini davom ettira olish, ertak, syujetli rasm, rolli o‘yinda rollar ketma-ketligini nutq orqali ifodalash, tushunmagan joyini qayta so‘rash, izoh so‘rash, imo-ishora, takrorlash orqali muloqotni

davom ettirish, o‘z his-tuyg‘ularini (xursandchilik, ranjish, qo‘rquv, qiziqish) so‘zda ifodalay olish, hamdardlik bildirish, bo‘lishish, kelishmovchilikni tinch yo‘l bilan hal etish kabi mazmunli yo’nalishlarni qamrab oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiya rivojlanishi nutqni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, zamonaviy tadqiqotlarda bu jarayon muloqotning psixologik, kognitiv va ijtimoiy jihatlari birligi sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy pedagogikada “variativlik” ta’lim jarayonining qat’iy bitta standart senariy bilan cheklanmasdan, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va ijtimoiy-madaniy kontekstiga mos ravishda bir nechta variantlarda qurilishi sifatida talqin etiladi.

Variativ yondashuv zamonaviy ta’limda ta’lim mazmuni, metodlari, texnologiya va baholash vositalarining ko‘p variantli, moslashuvchan va differensial tashkil etilishini anglatib, mahalliy tadqiqotlarda variativ ta’lim tarbiyalanuvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasiga mos holda ta’lim dasturlarini variantlar asosida loyihalash zarurati bilan izohlanadi. Ya’ni, variativ yondashuv ta’lim jarayoni ishtirokchilarining mavjud holatini hisobga olib, jarayonni optimal qulaylashtirish orqali manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirishni ifodalaydi. Bu esa, “pedagogik tizim ichida yangilik kiritishning strategik modeli” olaroq namoyon bo’ladi.

Variativ yondashuvni pedagogik innovatsiyalar bilan bog‘lab, uni ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish, o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari va o‘qish uslubini inobatga olishga xizmat qiluvchi metodologik yo‘nalish sifatida tahlil qiladi. Demak, variativ yondashuv ta’lim mazmuni, metod va shakllarining ko‘p variantliligi hamda tarbiyalanuvchilarda individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashni nazarda tutuvchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shakli.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi ma’lum “o‘rganish obyekti”ning muvofiq o‘zgarishlari (variatsiyasi) bilan to‘qnash kelganda, mazkur obyektning “tanqidiy jihatlari”ni anglaydi. Bunda ba’zi jihatlar qabul qilinadi, boshqalari esa variatsiya qilinadi. Ushbu nuqtai nazardan, mazkur yondashuv turli kontekst, faoliyat turi va ifodaviy uslublar orqali maxsus variativ maydonni ishlab chiqish va amalga oshirishni aks ettiradi. Bu esa, rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar uchun metodologik tayanch bo’lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, variativ yondashuv ta’lim oluvchining individual tajribasini didaktik resursga aylantirish maqsadida fanning ichki mazmunini turlicha vaziyatlar, masalalar, o‘yinlar orqali ifodalash asosida moslashuvchan modelni yaratishni kafolatlaydi. Maktabgacha ta’limda variativlik bola shaxsini kompleks rivojlantirish talabidan kelib chiquvchi turli modellarni tashkil etish yoki maxsus moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni maqsadli qo’llash zaruratini yuzaga chiqaradi.

Variativ yondashuvning metodik imkoniyatlariga tayangan holda bilingvizm asosida ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirishga doir dasturni ishlab chiqishda shaxsga yo‘naltirilganlik, moslashuvchanlik, ijtimoiy-madaniy asoslanganlik, variativ asoslanganlik tamoyillariga ustuvorlik berildi.

Shaxsga yo‘naltirilganlik – bolaning til bilish darajasi, temperamenti, ijtimoiy faolligi va oilaviy til muhiti imkoniyatlarini hisobga olishni ifodalovchi differensial topshiriqlarni faol qo'llashni anglatadi.

Har bir mashg‘ulot uchun kamida 2-3 xil faoliyat varianti, turli til kombinatsiyalar va murakkablik darajalarini rejalashtirishni nazarda tutuvchi moslashuvchanlik tamoyili.

Til ko‘nikmalarini alohida emas, balki ijtimoiy rollar, qadriyatlar va madaniy amaliyotlar bilan uzviy bog‘lanishini nazarda tutuvchi ijtimoiy-madaniy asoslanganlik tamoyili.

O‘rganilayotgan ijtimoiy-kommunikativ jihatlarni tanqidiy (masalan, murojaatda hurmatning ifodalanishi, intonatsiya, mimika) turli vaziyatlarda o‘zgartirish, boshqa komponentlarni esa doimiy ushlab turish, o’zgartirmaslik orqali bolalarga farqlarni anglash imkonini beruvchi variativ asoslanganlik tamoyili.

Variativ rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarda ushbu tamoyillarning imkoniyatlaridan kompleks foydalanish bilingv muhitda variativ yondashuvni metodik jihatdan asoslashga va jarayonni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan variativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni shakllantirish mazmuniga doir tahlillarga asoslangan holda jarayonning tashxislash, amaliy qo‘llash va refleksiv-nazoratli bosqichlardan iborat yaxlit tuzilmasi ishlab chiqildi. Mazkur tuzilma o’zida metodik ketma-ketlik va pedagogik jarayonning ichki mantiqiy siklini ham aks ettiradi.

Variativ yondashuv asosida bilingvizm vositasida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni shakllantirishga doir dastur kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy hamkorlik konsepsiyasi va variativ ta’lim g‘oyalariga tayanadi.

Variativlik refleksiv suhbat shaklida ba’zan faqat ona tilida, ba’zan esa qisqa bilingval formatda (asosiy savol ona tilida, qo‘shimcha savol yoki yakuniy xulosa ikkinchi tilida) tashkil etiladi.

Bunda tarbiyachi o‘z refleksiyasida qaysi tipdagi mashg‘ulotlar (syujetli o‘yin, bahsli vaziyat, “round robin” dialoglar)da ijtimoiy-kommunikativ o‘sish kuchliroq namoyon bo‘lganini aniqlaydi va keyingi bosqich uchun variativ rejalashtirishni qayta ko‘rib chiqadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, 3-4, 4-5 va 5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarga nisbatan bir xil model (tashxislash – amaliy qo‘llash – refleksiv-nazoratli) qo‘llansa-da tashxis mazmuni – yoshga qarab kengayib va murakkablashib boradi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, variativ yondashuv asosida qurilgan texnologiya bir tomondan – yosh xususiyatlari, ikkinchi tomondan – bosqichma-bosqich rivojlanish mantiqini hisobga olgan holda izchil tizimni tashkil etadi. 3-4 yoshda e’tibor, avvalo, tabiiy o‘yin vaziyatida kontaktga kirishish, salomlashish, sodda nutq aktlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lsa, 4-5 yoshda bu jarayon dialog, hamkorlik va kelishmovchilikni til orqali yumshatishga

kengayadi. 5-6 yoshga kelib esa, bola ijtimoiy vaziyatni nutq orqali ongli tahlil eta oladigan, izchil hikoya, bahs va dramatizatsiya darajasiga ko‘tariladi.

Xulosa. Bolalarda ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik-psixologik jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning emotsional intellekti hamda kognitiv sohasini uyg‘un rivojlantirishga bog‘liq. Ta’lim muassasalarida psixologik xavfsiz muhitni tashkil etish, o‘yin va interfaol metodlardan tizimli foydalanish bolalarning nafaqat samarali muloqot qilishiga, balki kelajakda ijtimoiy faol, stressga chidamli va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «2023 yilda “O‘zbekiston–2030” strategiyasini o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» № PQ–300, 2023 yil 11 sentyabr.

[2] Выготский Л.С. Психология развития человека. - М.: Смысл; Эксмо, 2005. - 1136 с.

[3] Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. - 160 b

[4] Najmiddinova G.O. Issues of the development of connected speech in children 5-7 years old with a differentiated approach to learning // scopus. Vol. 17 No. 6 (2020): PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology (2020.12.03) https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/2357. Pages: 8927-8933